



“ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ”

atamasındağı V Xalıqaralıq ilimiý-teoriyalıq konferenciya

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKIOTLARI TARBIYALANUVCHILARIDA O’Z O’ZINI BAHOLASH KO’NIKMASINI SHAKLLANTIRISH JARAYONINING O’ZIGA XOSLIGI

Atabaeva Dilshoda Azatovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Gumanitar va ijtimoiy fanlarni masofadan o‘qitish kafedrasi assistant-o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15079469>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarining o’z o’zini baholash ko’nikmalari, uni shakllanish jarayoni, o’ziga xos xususiyatlari, o’z o’zini baholash layoqatiga egalikning namoyon bo’lishi, o’z o’zini adekvat baholay olmasliklari sabablari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar: do’stlik, hamkorlik mehnatsevarlik, munosib baholash, mos tarzda baholash, o’z o’zini baholash, faoliyat, topshiriqlar, o’z o’zini past baholash, o’z o’ziga yuqori baho berish, nomutanosib baholash.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining maqsadga muvofiqlik tarzda rivojlanishlarini ta’minalash uchun ular o’rganishni hoxlagan buyumlar, hodisalar bilan uyg‘un munosabat o’rnatish, uning xohish istaklarini aniqlash, initilishlarini tahlil qilish, layoqatlarini ko’rsatish orqali intellektual jihatdan rivojlantirish mumkin. Tarbiyalanuvchilarining layoqatini rivojlantirish jarayonida amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat ularda o’z o’zini baholash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilishi kerak. Tarbiyalanuvchilar o’z xohish istaklari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda xatti-harakatlarini baholaydilar. Biroq bunday baho har doi ham to‘g‘ri va aniq bo‘lavermaydi. Ba’zi hollarda bolalar o’z imkoniyatlarini yuqori baholasalar, ayrim vaziyatlarda past baholashga muvaffaq bo‘ladilar. Tarbiyalanuvchilar xarakteridagi o’zgaruvchanlik tufayli esa ular tez-tez o’z xatti-harakatlarini qayta baholashni istaydilar. Bolalar har gal o’z o’zlarini baholaganda yuqoriqoq darajaga intiladilar, yana bir guruh bolalar o’z imkoniyatlariga qo’rkoqlik bilan munosabatda bo‘ladilar, shuning naijasida o’z o’zlarini juda past baholaydilar. Aslida esa ularning xatti-harakatlariga beriladigan baho o’zlarini taklif qilgandan ko‘ra ancha yuqori bo‘ladi. Tarbiyalanuvchilarining o’z o’zini baholashini ular maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelgan dastlabki kunlaridan boshlash lozim. Tarbiyalanuvchilarda o’z o’zini baholash ko’nikmalari ularning guruhdoshlari bilan kechadigan munosabatlari va amalga oshiriladigan faoliyatlarini asosida shakllantiriladi. Tarbiyalanuvchilarda o’z o’zini baholash ko’nikmalarining barqarorlashuvini ta’minalash murakkab pedagogik jarayon mahsuli hisoblanadi.

Bolalar muntazam tarzda o’zlarini guruhdoshlari bilan qiyoslaydilar. Shu asosida o’zlar, imkoniyatlari, xarakterlarining o’ziga xos jihatlari haqidagi shaxsiy



“ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ”

atamasındağı V Xalıqaralıq ilimiý-teoriyalıq konferenciya

fikrlari shakllanadi. Natijada tarbiyalanuvchilarda bosqichma-bosqich o‘z o‘zini baholash ko‘nikmasi shakllanadi. O‘z o‘zini munosib baholash tarbiyalanuvchilarda o‘z imkoniyatlari doirasida turli topshiriqlarni bajarish va guruhdoshlariga talablar qo‘yish layoqatining shakllanishiga ko‘maklashadi. O‘z o‘zini nomutanosib baholash esa tarbiyalanuchilarining ichki olamiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi, rivojlanishiga to‘sinqlik qiladi.

O‘z o‘zini baholash bolalarda juda yoshlikdan boshlanib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘z faoliyati va harakatlarini boshqarishning yangi psixologik mexanizmlari vujudga keladi. Shuning uchun ham maktabgacha ta’lim tashkilotlarining katta guruahlari trabiyalanuvchilarning o‘z o‘zini anglash va munosib baholash ko‘nikmalarining rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim davrii tarbiyalanuvchilarda yangi shaxsiy sifatlarning shakllanishi uchun muhim davr bo‘lib, o‘ziga xos parametrlarda namoyon bo‘ladi. Motivlarning o‘zaro muvofiqlashuvi natijasida yangi faoliyat moitvlarini egallash mayillari vujudga keladi. Buning natijasida esa bolalar amal qiladigan yetakchi qadriyatlar tarkib topadi. Bu davrga kelib tarbiyalanuvchilarning o‘z tengdoshlari bilan kechadigan munosabatlarning xarakteri o‘zgaradi. Ular kattalar bilan muloqot o‘rnata boshlaydilar natijada tarbiyalanuvchilar o‘zlarini tashqi olam bilan qiyoslash, o‘z o‘zini baholash, jamiyatdagi me’yorlar va qoidalarga moslashishga harakat qiladilar.

Bolalarning o‘z o‘zini baholashida kattalarning ularga beradigan baholari ham muhim o‘rin egallaydi. Bolalarga past baho berish ularga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori baho esa bolalarning o‘zlarini haqidagi tasavvurlarini mavhumlashtiradi. Shu bilan bir qatorda ijobiy ahamiyatga ham ega bo‘lib bolalarda o‘z imkoniyatlarini safarbar qilish mayillarini tarkib toptiradi. Katta maktabgacha yoshdagи bolalarning o‘z o‘zlarini munosib baholashida tengdoshlari bilan amalga oshiriladigan muqot muhim ahamiyat kasb etadi. Ular baholarning ta’sirini o‘zaro almashinadilar boshqa bolalarga bo‘lgan munosabatini oydinlashtiradi hamda o‘zlariga ularni ko‘zi bilan qarash layoqatiga ega bo‘ladilar. Tarbiyalanuvchilarda o‘z o‘zini baholash aniq foliyat jarayonida shakllanadi, ushbu natijalar bolaning o‘z o‘zini mustaqil baholashi uchun qulaylikni ta’minlaydi. O‘yin jarayonida bolalar orasida shaxslararo munosabatlар vujudga keladi. Mazkur munosabatlар esa ularning o‘z o‘zini munosib baholashi uchun imkoniyat yaratadi. Bolalar o‘z tengdoshlari bilan muloqot jarayonida baholovchi ta’sirlarni almashinishga muvaffaq bo‘ladilar. Natijada har bir bolada boshqa tarbiyalanuvchilarda boshqa bolalarga nisbatan munosabat shakllanadi. Shu tariqa ular o‘zlarini tengdoshlarining ko‘zi bilan ko‘rishga muvaffaq bo‘ladilar. Dastlabki mehnat ko‘nikmalarini shakllanishi barobarida bolalarda o‘z



“ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ”

atamasındağı V Xalıqaralıq ilimiý-teoriyalıq konferenciya

o‘zini muayyan kasbda ko‘rish ko‘nikmalari shakllanadi. Katta maktabgacha yoshdagи bolalarda jamoaviylik ko‘nikmalarining shakllanishi o‘zlarining birgalikdagi faoliyatlari rejalarini tuzish va muhokama qilish layoqatining namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Muayyan faoliyatda ishtirok etish, o‘zaro kelishish, olingen natijalar uchun mas’uliyatni his etish ko‘nikmalarining shakllanishiga asos bo‘ladi. Masalan bolalardagi tasviriy faoliyat ularning o‘zlarini chizayotgan narsa buyumlarga bo‘lgan munosabatning ham namoyon bo‘lishga xizmat qiladi. Ular o‘zlarini atrof-muhitda ko‘rgan narsalarni chizayotgan ramlarda mujassamlashtirishga harakat qiladilar. Ushbu o‘rinda bolalarni tasavvurlari, xis hayajonlari, ijobiy yoki salbiy munosabatlari namoyon bo‘ladi. Ular noxush hodisalarni tasvirlaganda salbiy xis-tuyg‘ularni oshkor qiladilar.

Katta maktabgacha yoshdagи bolalar uchun 6-7 yosh inqirozli davr bo‘lganligi tufayli ularda o‘z o‘zini baholash bir qadar yuqori bo‘ladi. Shuning uchun ham tarbiyachilar bu davrda ularni ob’ektiv fikrlashga odatlantirishlari lozim. O‘yin, rasm chizish, buyumlarni qurish, yasash, turli mashqlarni bajarish jarayonida ular o‘z imkoniyatlarini ko‘ra oladilar va o‘z o‘zlarini munosib baholashga muvaffaq bo‘ladilar. Maktabgacha ta’lim bosqichi yakunida bolalarda o‘z o‘zini mos tarzda baholash ko‘nikmasi shakllanadi. Shu bilan bir qatorda bu davrda ham o‘z o‘ziga yuqori baho beradigan bolalarning mavjudligi kuzatiladi. Bunday bolalar juda harakatchan, toqatsiz, bir faoliyat turidan ikkinchisiga tez o‘tib ketadigan, boshlagan ishini oxiriga yetkazmaydigan diqqati tarqoq bolalardir. Ular faoliyatları va xatti harakalari natijasini tahlil qilishga moyil bo‘lmaydilar, har qanday, hattoki murakkab topshiriqlarni zudlik bilan bajarishga harakat qiladilar, o‘z oldlariga qo‘yilgan vazifalarni to‘liq tushunib yetib tahlil qilishni xohlamaydilar. O‘z muvaffaqiyatsizliklarining sabablarini anglab yetmaydilar. Bunday tarbiyalanuvchilar o‘z xulq-atvorlarini namoyon etish va yetakchilik qilishga moyil bo‘ladilar. O‘z o‘zlarini munosib baholaydigan tarbiyalanuvchilar esa xatti-harakatlarini tahlil qilish, o‘z xatolarining sabablarini aniqlashga initiladilar. Bunday bolalar bir faoliyatdan ikkinchisiga tez moslashadilar va uni amalga oshirish usullarini osonlik bilan o‘zlashtiradilar. Ular muloqotga kirshuvchan, o‘zaro do’stlashishga moyil, boshqalar bilan til topishadigan, ko‘makdosh bo‘lishni xohlaydigan bolalardir. Bunday bolalar bilan ishslash tarbiyachilar uchun ham ancha oson hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Smirnova Ye.O. Pedagogicheskie sistemy i programmy doshkolsnogo vospitaniya. M.: Vlados, 2006. 119 s.
2. Psixologiya samosoznaniya: xrestomatiya. Samara, 2000. 672 s.
3. Stolin V. V. Samosoznanie lichnosti. M.: LitRes, 2009. – 464 s.